

UDK: 619:616.006.631:681.3

LEYKOZ INFEKSIYASIDAN FERMANI SOG'LOMLASH TIRISH

Salimov X.S.¹ – v.f.d., prof.

Bo'taev M.Q.¹ – v.f.n., k.i.x.

Ruziev Z.E.² – v.f.n.

Salimov I.X.¹ – v.f.d., k.i.x.

Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti¹

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti²

O'zbekiston Respublikasini veterinariya va chorvachilik sohasida olib borilayotgan islohotlar misolida sohani rivojlantirishda mamlakatimizda oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash, mahsulot yetishtirish, naslchilik, seleksiya ishlarini yaxshilash, qishloq xo'jaligi hayvonlari orasidagi epizootik osoyishtalikni ta'minlash bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. Shular jumlasiga leykoz kasalligiga qarshi kurash choralari ham kiradi. Bu kasallikka qarshi kurashishda dunyo mamlakatlari olimlari tomonidan olib borilayotgan zamonaviy chora-tadbirlarga suyanib, Respublikamiz sharoitiga moslashgan holda leykoz infeksiyasi bo'yicha nosog'lom xo'jaliklarni sog'lomlashtirish tadbirlari o'tkazilmoqda.

Dunyo mamlakatlari hududlarida keyingi yillarda qoramollar leykoz kasalligining epizootologik holati keskin o'zgarganligini kuzatish mumkin. Bu o'zgarishlar asosan kasallikka qarshi kurashish choralari ko'pgina mamlakatlarda turli hil bo'lganligi sabab bo'lmoqda. Jumladan, ushbu o'zgarishlar qoramollar leykozini diagnostikasida har xil serologik usullar (IDR, IFT) qo'llanilgan. Leykoz infeksiyasiga ijobiy natija bergan hayvonlarni darhol ajratib, ularni eliminatsiya qilish evaziga kasallikni sezirarli darajada kamayishiga olib kelganligi va leykoz infeksiyasi bo'yicha epizootik barqarorlikka erishilganligi aniqlanmoqda. Aksincha, leykoz virusi bilan zararlangan mollarni podada uzoq saqlagan hollarda, kasallikni kamayishiga olib kelmaganligi kuzatilgan.

Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida, leykoz infeksiyasi bilan zararlangan qoramollarni jiddiy nazorat ostida tezda yuqotish usullari amalga oshirilganda kasallikni keskin kamayishiga olib kelganligi, hattoki klinik va gematologik kasallangan mollar mavjud emasligi aniqlanmoqda. Jahon hayvonlar sog'ligi tashkilotining (JHST) ma'lumotiga qaraganda, Yevropaning ayrim mamlakatlarida leykoz infeksiyasi bilan zararlangan qoramollarni joyida yo'q qilinishi natijasida 12 mamlakat hududi (Daniya, 1990 yildan beri, Ispaniya, 1994 y., Kipr, 1995 y., Angliya, 1996 y., Irlandiya, 1999 y., Lixtenshteyn 2002 y., Norvegiya 2002 y., Shvesariya, 2005 y., Sloveniya 2006 y., Shvesiya 2007 y., Finlyandiya 2008, Chexiya, 2010 yilda) leykoz infeksiyasidan 1990 yildan boshlab hozirgi kungacha xoli hisoblanadi. 9 ta mamlakatda kasallik infeksiyasi qoramollar orasida keskin pasaygan va 0,01%-0,12% ni tashkil qiladi xolos. Bundan tashqari, ko'pgina hollarda sotib oluvchi mijozlarning talablariga binoan, sotib olinayotgan qoramollar majburiy polimeraza-zanjirli reaksiyasida (PZR) leykoz infeksiyasiga tekshirilmoqda.

Lekin PZR juda qimmat test bo'lganligi sababli uni qoramollar leykoz infeksiyasini aniqlash uchun ko'p mamlakatlarda imkoniyat yo'q.

Rossiya Federatsiyasining "Rospotrebnadzor" statistikasini rasmiy ma'lumotiga qaraganda mamlakat bo'yicha 2022 yida jami leykoz bo'yicha nosog'lom punktlar 6,7 mingni va ularda zararlangan mollar soni 13,6 mingni tashkil etgan. RFda uchraydigan umumiy infeksiyon kasalliklarga nisbatan qoramollar leykoz kasalligi 55% ni tashkil etmoqda. Ushbu holatni muammoli holat deb baholash mumkin. Demak, leykoz kasalligini sog'lomlashtirish tadbirlarida qancha tez leykoz infeksiyasi aniqlangan hayvonlar sog'lom mollardan ajratilsa, shuncha tez nosog'lom punktlarni sog'lomlashtirish va epizootik barqarorligiga erishish mumkinligini taqozo etmoqda.

Shularni e'tiborga olgan holda Respublikamizning chorvachilik xo'jaliklarida leykoz infeksiyasi aniqlangan qoramollarni xo'jalikni o'zida go'shtga so'yish imkoniyatlari cheklanganligi, xo'jalikka so'yilgan mollar uchun tannarx hisobida davlat sug'urta tashkiloti tomonidan to'liq to'lanmasligini inobatga olib, biz tomonimizdan boshqacha alternativ yo'l tanlandi. Bunda asosiy talablardan biri, infeksiyaga chalingan va immunoferment tahlil reaksiyasida (IFA) ijobiy natija bergan qoramollarni alohida ajratib parvarishlash, ulardan mahsulot olib (buzoq, sut), ularni ho'jalik imkoniyatlariga qarab bosqichma-bosqich eliminatsiya (xo'jalik ehtiyojiga qarab podadan chiqarish-so'yish) qilish orqali xo'jalik sog'lomlashtiriladi. Bu yunalish, bizning nazarimizda, tejamkor va yumshoq rejim qatoriga kirib, leykoz virusi bilan zararlangan qoramollar xo'jaliklarga deyarli katta zarar keltirmasdan, umumiy podadan ajratilgan holda yo'qotiladi, ikkinchidan, fermadagi sog'lom qoramollar, ayniqsa buzoqlar leykoz virusi bilan zararlanishdan asrab qolinadi.

Ushbu usul bilan Jizzah viloyati, Zomin tumani "Oyniso Qudratovna" fermer xo'jaligida sog'lomlashtirish tadbirlari amalga oshirildi. Fermadagi qoramollar Simmental zotiga mansub bo'lib, fermer-xo'jalik naslchilik toifasiga kiritilgan. Fermadagi qoramollardan 50 bosh sigir leykoz infeksiyasiga serologik tekshirilganda, ulardan 5 boshida (10%) immunoferment tahlil reaksiyasida ijobiy natija aniqlandi.

Dastavval fermer xo'jalikdagi pada 2 guruhga: sog'lom (salbiy natija ko'rsatgan) hamda zararlangan (ijobiy natija ko'rsatgan 5 bosh) guruhlariga bo'lindi. Leykoz infeksiyasi aniqlangan 2- guruhda qo'yidagi tadbirlar belgilandi:

-sigirlarni alohida saqlash va oziqlantirish, har yili 2 marta gematologik tekshirish o'tkazish;

- sigirlar sutini qizdirish orqali (85⁰C 30 daqiqa) zararsizlantirish va ichki imkoniyatlar uchun ishlatish (buzoqlarga berish);

-mollarni yaroqligini belgilash va shu asosda keyingi mahsuldor hayotiga aniqlik kiritish (darhol go'shtga topshirish yoki buzoq, sut olish va xo'jalik imkoniyatiga qarab go'shtga topshirish);

- xayvonlardan buzoq va sut olish, olingan buzoqlarni esa, sog'lom sigirlardan olingan sut bilan parvarishlash;

Xozirgi kunga kelib belgilangan tadbirlarga amal qilgan holda ajratilgan sigirlarning 2 boshi leykoz infeksiyasi aniqlangandan keyingi bir oy orasiida go'shtga so'yildi. Qolgan 3 bosh sigirdan 3 bosh buzoq olindi. Ushbu sigirlardan

tug'ilgan 3 bosh buzoq sog'lom rivojlanishi uchun fermadagi leykoz infeksiyasi bo'yicha sog'lom sigirlar suti bilan oziqlantirildi. 3 bosh sigirdan sut olinib turildi, ammo sut qizdirish orqali (85⁰C 30 daqiqa) zararsizlantirilib buzoqlarga yoki boshqa ehtiyojlar uchun odamlarga berildi. Leykoz infeksiyasi aniqlangan sigirlarni keyingi yilda podadan chiqarish va fermani sog'lomlashtirish uchun ularni urug'lantirish ko'zda tutilmadi va ular go'shtga so'yildi.

Shunday qilib, qoramolchilik fermer xo'jaligida leykoz infeksiyasi aniqlanganda, ularni korxonaga ehtiyojiga qarab bosqichma-bosqich go'shtga topshirish, shuningdek ulardan buzoq, sut olish, ammo buzoqlarni sog'lom sigir suti yoki har qanday sutni qizdirish orqali (85⁰S 30 daqiqa) zararsizlantirib parvarishlash asosida xo'jalikni ushbu infeksiyadan tejamkor va yumshoq usulda 12-16 oy ichida sog'lomlashtirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Egamberdievich, R. Z., & Ergashev, N. N. (2022). ECONOMIC IMPACT OF ANTI-LEUKEMIA MEASURES. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 10, 288-291.
2. Рузиев, З. Э. (2024). СРАВНИТЕЛЬНАЯ ОЦЕНКА СЕРОЛОГИЧЕСКИХ И ГЕМАТОЛОГИЧЕСКИХ МЕТОДОВ ДИАГНОСТИКИ ЛЕЙКОЗА. *Ustozlar uchun*, 1(1), 228-231.
3. Рузиев, З. Э. (1993). Эпизоотология лейкоза крупного рогатого скота и меры борьбы с ним в хозяйствах Узбекистана.
4. Рузиев, З. Э., & Исмоилов, А. И. (2022). СИСТЕМА ОЗДОРОВИТЕЛЬНЫХ МЕРОПРИЯТИЙ ПРИ ЛЕЙКОЗЕ КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА. *AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIIY JURNALI*, 364-369.
5. ЗЭ, Р. (2023). ПРАКТИКА САНАЦИИ ХОЗЯЙСТВ ОТ ВИРУСА ЛЕЙКОЗА КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА.
6. ЗЭ, Р. (2023). МЕТОДЫ ОЗДОРОВЛЕНИЯ ХОЗЯЙСТВ ОТ ЛЕЙКОЗА КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА.
7. Ruziev, Z. E. (2024, June). IMMUNOFERMENT ANALYSIS AND COMPARATIVE ASSESSMENT OF IMMUNODIFFUSION REACTION IN THE DIAGNOSIS OF LARGE HORNED ANIMAL LEUKOSIS. In *E Conference Zone* (pp. 50-55).
8. Рузиев, З. Э., Курбанов, Ж. Х., & Аллазов, А. С. (2021). ЙИРИК ШОХЛИ ҲАЙВОНЛАР ЛЕЙКОЗИДАН ХЎЖАЛИКЛАРНИ СОҒЛОМЛАШТИРИШ ТАЖРИБАСИ. *ВЕСТНИК ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА*, 1(2).
9. Egamberdiyevich, R. Z. (2022). SOME ASPECTS OF THE IMPROVEMENT OF FARMS FROM BOVINE LEUKEMIA. *NeuroQuantology*, 20(12), 1444.
10. Рузиев, З. Э., Исмоилов, А., & Эргашев, Н. Н. (2022). КЛИНИКО-МОРФОЛОГИЧЕСКОЕ ПРОЯВЛЕНИЕ ЛЕЙКОЗА У ИНФИЦИРОВАННОГО ВИРУСОМ ЛЕЙКОЗА КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА. *ВЕСТНИК ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА*, 2(1).

11. Butaev, M. K., & Ruziev, Z. E. (2024). ROUTES AND FACTORS OF TRANSMISSION OF LARGE LEUKEMIA VIRUS CATTLE. *Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods*, 2(4), 42-48.
12. Izbasarov, U. K., Mamadullaev, G. K., Ruziev, Z. E., & Usmonova, K. Z. Modern Requirements for the Treatment of Dermatoses (Psoriasis, Eczema) of Complex Etiology. *Trichophytosis in Humans, Sheep and Goats*.
13. Izbasarov, U. K., Mamadullaev, G. K., Ruziev, Z. E., & Usmonova, K. Z. Modern Requirements for the Treatment of Dermatoses (Psoriasis, Eczema) of Complex Etiology, Trichophytosis in Humans, Sheep and Goats.
14. Egamberdiyevich, R. Z., Ipkhomovich, K. O., & Salokhovich, A. A. (2021). Sheep Brucellosis Is A Dangerous Disease (Literature Review). *Academicia Globe*, 2(12), 11-13.
15. Газнакулов, Т. К., Орипов, А. О., Сафаров, А. А., Хушназаров, А. Х., Давлатов, Р. Б., & Абдухакимов, Ш. & Мавланов, С. (2023). *ХС Салимов, МК Бутаев, ЗЭ Рузиев, –Биохавфсизлик*.
16. Усмонова, Х., Избасаров, У., Мамадуллаев, Г., & Рузиев, З. (2022). Современные требования к лечению дерматозов (псориаза, экземы) сложной этиологии, трихофитии у человека, овец и коз. *in Library*, 22(2), 684-687.
17. Газнакулов, Т. К., Орипов, А. О., Сафаров, А. А., Хушназаров, А. Х., Давлатов, Р. Б., Абдухакимов, Ш., & Мавланов, С. (2023). *ХС Салимов, МК Бутаев, ЗЭ Рузиев, –Биохавфсизлик*.
18. Давлатов, Р. Б., Насимов, Ш. Н., Ниёзов, Х. Б., Жабборов, Ш. А., Хўджамшукуров, Ш. А., & Сафаров, Х. А. (2019). Парранда касалликларини профилактикаси ва даволаш бўйича ТАВСИЯЛАР. *Тошкент-2019*, 21-26.
19. Давлатов, Р. Б., Салимов, Х. С., & Худжамшукуров, А. Н. (2018). Парранда касалликлари" ўқув қўлланма Самарқанд.
20. Давлетов, Р. Б., Салимов, Х. С., & Тоиров, Ж. Э. (2019). ЧУВСТВИТЕЛЬНОСТЬ КОЛИБАКТЕРИОЗА ПТИЦ К АНТИБИОТИКАМ. In *СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ, ТРАДИЦИИ И ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В РАЗВИТИИ АПК* (pp. 39-44).
21. Butaeva, I. M., Salimov, H. S., & Davlatov, R. V. (2020). On The Diagnosis Of Mixed Bacterial Infections Of Birds. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(9s), 2308-2315.
22. Давлатов, Р. Б., Салимов, Х. С., & Тоиров, Ж. Э. (2018). ВОПРОСЫ ЭПИЗООТОЛОГИИ ЭШЕРИХИОЗА ПТИЦ В УЗБЕКИСТАНЕ. In *Современное состояние, традиции и инновационные технологии в развитии АПК* (pp. 67-73).
23. Ниязов, Ф. А., Давлатов, Р. Б., & Дурдиев, Ш. К. (2007). Особенности ассоциированного течения эймериоза и колибактериоза птиц. In *Болезни птиц в промышленном птицеводстве. Современное состояние проблемы и стратегия борьбы. Матер. научно-произв. конф* (pp. 324-327).
24. Давлатов, Р. Б., Салимов, Х. С., & Хўджамшукуров, А. Н. (2018). Паррандалар касалликлари. *Ўқув қўлланма, Самарқанд-2018*, 10.